XALQ DEPUTATLARI QO‘RG‘ONTEPA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 18-avgust VII-7-80-1-23-K/25 Qo‘rg‘ontepa tumani

Qo‘rg‘ontepa tuman mahalliy byudjetining 2025 yil 2-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 27-, 126-moddalariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24–moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1.Qo‘rg‘ontepa tuman mahalliy byudjetining 2025 yil 2-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan qo‘shimcha mablag‘larjami **2 mlrd 299 mln. 660.0 ming so‘m,**shundan Yer uchastkalariga bo‘lganhuquqlarini sotishdan tushgan pul mablag‘lari hisobidan **99 mln 315.4 ming** so‘mni tashkil etganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligining “2025 yil 2-chorak yakuni bilan shakllangan qo‘shimcha mablag‘larni maqsadli va manzilli sarflanishi bo‘yicha” taklifi maqullansin.

3. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 126-moddasiga asosan tuman mahalliy budjetining 2025 yil 2-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan ilovaga muvofiq mablag‘lar ajratilsin.

4. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S.Yuldashev) va g‘aznachilik xizmati bo‘linmasi (I.Sharipov) bilan birgalikda ushbu qaror ilovasiga muvofiq ajratilgan mablag‘larni belgilangan tartibda yo‘naltirilishini hamda moliyalashtirilishini ta’minlasin.

5. Tuman hokimligi matbuot xizmati (M.Maxmudov) mazkur qarorni matbuotda e’lon qilsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi U.Madaminov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi XALILOV ALISHER OLIMJONOVICH

Xalq deputatlari Qo‘rg‘ontepa tumani
Kengashining
2025-yil 18-avgustdagi
VII-7-80-1-23-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qo‘rg‘ontepa tuman mahalliy budjetining 2025 yil 2-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘larni yo‘naltirish hisobi

T A Q S I M O T I

ming so‘mda

№	Sohalar nomi	Maqsadi	Ajratilayotgan mablag‘ miqdori	Mablag‘ ajratish uchun asos
1	Tuman hokimligi	"Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi"ga	689 898	PQ-5072, 13.04.2021 y.
2	Tuman hokimligi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 3 yanvar kungi PQ-1-sonli qaroriga asosan tuman Ichki ishlar bo‘limida tashkil etilgan monitoring markazlariga zamonaviy texnika vositari sotib olish va integratsiya qilish xarajatlari uchun	57 800	PQ-1 03.01.2025 y.
3	Tuman hokimligi	Tumanda mustaqillik bayrami munosabati bilan tadbir xarajatlari uchun	140 000	
4	Tuman hokimligi	Tuman xokimligi qo‘riqlash xizmati uchun	28 700	
5	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga	Tuman markaziy ko‘chasiga to‘siq panjara o‘rnatish uchun temir maxsulotlari sotib olish xarajatlariga	470 000	
6	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga	Tuman markaziy ko‘chalarini obodonlashtirish ko‘kalamzorlashtirish bezaklik chiroqlar yoritish chiroqlari hamda gul ko‘chatlari sotib olish xarajatlariga	400 000	
7	Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limiga	2025-2026 yil o‘quv yiliga tayyorgarlik ko‘rish uchun maktabgacha talim tashkilotlarini xonalarni ta’milash, yoritish chiroqlari o‘rnatish hamda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik bo‘yicha maxsulotlar sotib olish xarajatlariga	200 000	
8	Tuman hokimligi	Tuman xokimligini moddiy texnik bazasini yaxshilash xamda xokimlikning tuman arxivida saqlanayotgan xujjatlar xarajatlariga	100 000	

9	Tuman hokimining qaror va farmoyishlariga asosan	Boshqa xarajatlar	213 262	
	Jami	**X**	**2 299 660**	**x**